

TURIZM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO HUQUQNING O‘RNI

**THE ROLE OF INTERNATIONAL LAW IN THE DEVELOPMENT OF THE
TOURISM SECTOR**

**РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ
ОТРАСЛИ**

Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti, yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi

muhammadrajabh18@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining huquqiy asoslari O‘zbekiston va xalqaro tajriba misolida tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – turizmning barqaror rivojlanishida huquqiy mexanizmlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash, mavjud muammolarni ko‘rsatish hamda takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida” Qonuni, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, BMTning Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) hujjatlari hamda xalqaro turizm konvensiyalari asosida qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda turizm sohasining huquqiy bazasi shakllangan bo‘lsa-da, turistlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, majburiy sug‘urta tizimini kengaytirish, turistik xizmatlarni litsenziyalash va sertifikatlash jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish zarur. Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekiston turizm sohasining global raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm huquqi, O‘zbekiston turizm qonunchiligi, xalqaro turizm huquqi, UNWTO, turist huquqlari, majburiy sug‘urta, turizm xavfsizligi, litsenziyalash, sertifikatlash, madaniy meros, xalqaro integratsiya.

Abstract: This article examines the legal foundations of the tourism industry using the example of Uzbekistan and international experience. The main objective of the study is to identify the role and importance of legal mechanisms in the sustainable development of tourism, highlight existing challenges, and propose practical recommendations for improvement. A comparative analysis was conducted based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Tourism", resolutions of the Cabinet of Ministers, documents of the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), and international tourism conventions.

The recommendations, based on international best practices, are aimed at enhancing Uzbekistan's global competitiveness in tourism.

Keywords: Tourism law, Uzbekistan tourism legislation, international tourism law, UNWTO, tourists' rights, mandatory insurance, tourism safety, licensing, certification, cultural heritage, international integration.

Аннотация: В статье рассматриваются правовые основы туристической отрасли на примере Узбекистана и международного опыта. Цель исследования – определить роль и значение правовых механизмов в устойчивом развитии туризма, выявить существующие проблемы и разработать практические рекомендации по их совершенствованию. В работе проведён сравнительный анализ Закона Республики Узбекистан «О туризме», постановлений Кабинета Министров, документов Всемирной туристской организации (ЮНВТО) и международных туристических конвенций. Предложенные меры, основанные на международном опыте, направлены на повышение глобальной конкурентоспособности туризма Узбекистана.

Ключевые слова: Право в туризме, законодательство Узбекистана о туризме, международное туристическое право, ЮНВТО, права туристов, обязательное страхование, безопасность туризма, лицензирование, сертификация, культурное наследие, международная интеграция.

Kirish

So‘nggi yillarda turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Xalqaro turizm nafaqat davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi, balki huquqiy munosabatlarning yangi yo‘nalishlarini ham shakllantiradi. Bugungi kunda turizm nafaqat sayohat va hordiq chiqarish, balki xalqaro huquq, migratsiya, xavfsizlik, madaniy merosni muhofaza qilish, ekologiya va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish bilan ham chambarchas bog‘langan sohaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Turizm milliy iqtisodiyotning lokomotiviga aylanishi, xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini mustahkamlashi lozim”[1]

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro turizm bozoriga integratsiyasi kuchayib borayotgan bir paytda, turizm bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimini chuqur tahlil qilish zarur. Turistlar xavfsizligi, ularning huquqlarini himoya qilish, turizm sohasi sub’yektlarining javobgarligi va xalqaro huquqiy me‘yorlarga moslashish masalalari ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning maqsadi – turizm sohasining huquqiy asoslarini tahlil qilish, O‘zbekiston va xalqaro tajribani qiyosiy

o‘rganish hamda turizm huquqiy tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatimizda 2016-yildan boshlab turizmni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. 2019-yilda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida” Qonuni (O‘RQ-549-son, 2019-yil 18-iyul) turizmni huquqiy jihatdan tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini belgiladi.[2] Ushbu qonunda turistlarning huquq va majburiyatlari, turizm faoliyatini litsenziyalash, turistlarning hayotini va mulkini sug‘urtalash, hamda madaniy meros obyektlarini asrash bo‘yicha normalar mustahkamlandi. Xalqaro miqyosda esa turizmni tartibga solish bo‘yicha BMTning Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) hamda Yevropa Kengashi Turizm Xartiyasi kabi hujjatlar asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, UNWTO Global Code of Ethics for Tourism sayohatchilarning huquqlari, davlatlarning majburiyatlari va turizmning barqaror rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi.

Ma’lumotlar va tahlil

Tadqiqot davomida huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), “Turizm to‘g‘risida” Qonuni (2022), Vazirlar Mahkamasining qarorlari, UNWTOning global hisobotlari va xalqaro konvensiyalar, shuningdek ilmiy monografiyalar va statistik ma’lumotlar qo‘llanildi. Ushbu yondashuv turizmning huquqiy tartibga solinishidagi muammolar va istiqbollarni kompleks ochib berishga imkon berdi. Tahlillar natijasida O‘zbekiston turizm sohasida sezilarli huquqiy yutuqlarga erishgani aniqlandi. Jumladan, turistlarning huquqlari, xavfsizlik va sog‘liqni himoya qilish, madaniy meros obyektlariga kirish huquqlari qonuniy jihatdan mustahkamlangan. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 6,5 millionga, ichki turistlar soni esa 9,8 millionga yetgan. Shu bilan birga, turistlar shikoyatlarini tezkor hal qilish mexanizmlari zaifligi, sug‘urta tizimining yetarlicha rivojlanmagani va litsenziyalash jarayonining to‘liq raqamlashtirilmaganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasining barqaror rivojlanishi uchun huquqiy mexanizmlar yanada mukammal bo‘lishi lozim. Ko‘plab mamlakatlarda turistlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha maxsus ombudsman instituti joriy etilgan, majburiy sug‘urta tizimi to‘liq ishlaydi va barcha turistik xizmatlar raqamlashtirilgan. 2023-yilda jahon bo‘yicha xalqaro sayyohlar soni 1,28 milliardni tashkil etdi, global turizm YaIMning 10,3 foizini shakllantirdi va 320 million ish o‘rni yaratdi. Ushbu ko‘rsatkichlar turizmni iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini yaqqol namoyish etadi. Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston turizm sohasida xalqaro standartlarga moslashish jarayonida. Turistlar huquqlarini samarali himoya qilish, majburiy sug‘urta va to‘liq raqamlashtirilgan litsenziya tizimi joriy etilishi sohaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Shuningdek, xalqaro arbitraj mexanizmlari va elektron shikoyat platformalarini joriy etish ham huquqiy tizim samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston turizm sohasining huquqiy rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

1. Turistlar huquqlarini samarali himoya qiluvchi mexanizmlarni yaratish;
2. Majburiy sug‘urta tizimini kengaytirish va moliyaviy xavfsizlikni kuchaytirish;
3. Turistik xizmatlarni litsenziyalash va sertifikatlash jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish;
4. Xalqaro huquqiy tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va global integratsiyani chuqurlashtirish.

Bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston turizmi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mamlakatning xalqaro imijini oshiradi, madaniy merosni asrashga xizmat qiladi va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlaydi.

Turizm sohasi rivojlanishi bilan bir qatorda, uning huquqiy tartibga solinishi ham dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘zbekiston va xalqaro tajribani tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy yo‘nalishlar va muammolar aniqlandi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 10,5 millionni tashkil etdi [O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, 2024]. Ichki turizm bo‘yicha esa 5,4 milliondan ortiq mahalliy sayyohlar harakat qildi. 2020-yil pandemiyasidan so‘ng turizm daromadlari 3 barobar oshdi, bu esa huquqiy tartibga solishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri natijalaridan biridir.

Soha rivojlangani sari bu Huquqiy muammolar ham tobora ortib bormoqda, bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Turistlarning shikoyatlarini tezkor hal qilish mexanizmi yetarlicha rivojlanmagan;
2. Mahalliy gidlar va turfirmalar faoliyatida litsenziya va sertifikatlash jarayoni to‘liq raqamlashtirilmagan;
3. Sud amaliyotida turizm sohasidagi shikoyatlar bo‘yicha yetarlicha huquqiy baza yo‘qligi aniqlanmoqda.[4]

Insonning hayoti xavfsizligini ta'minlash hamma vaqtda ham avvalo Insonning o'z hayotini hayotini muhofaza qilish, sog'lig'ini saqlash, yashash istagi hissiyotlaridan kelib kelib chiqadi. O'z hayoti xavfsizligining ertasini o'ylamaydigan, hozirgi zamonamizdan juda ko'p yillar ilgari xavfli sharoitlarda tavakkaliga sayohatga chiqqan Jasur kishilar (Skott, Magellan, Maklay, Livingston, Dikson, Nikitin, Bering, Dejnyov, Perjevalskiy, Polo, Batuta, Lazarev, Kruzenshtern, Kolumb, Vamberi va boshqalar) buyuk geografik tadqiqotchi sayyohlar bo'lishgan, lekin vaqt o'tishi bilan insonning yashashga bo'lgan hissiyotlari ham o'zgardi. Bunday hissiyotlar zahirida albatta qo'rqish hissi hukmron, ikkilanish hissi kuchliroq bo'lganligi hisoblanadi. Bir mamlakatdan o'zga mamlakatlarga sayohat qilmoqchi bo'lgan turist albatta, bu mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat bilan qiziqadi, axborotlarni

to'playdi va ko'nglida xavotir yo'qligidan aniq bir qarorga keladi. Turizmning xalqaro miqyosda rivojlanib borayotganligining sabablaridan biri xalqaro nizolarning pasayishi, qurollanishning susayganligi natijasida Jahon xalqlarining biri-biriga qiziqishi, ko'rishishga, muloqot qilishga, xalqlarning tarixiy-ma'naviy madaniyatiga, xalqlar yashayotgan davlatlar tablatiga qiziqishi, intilishi hisoblanadi. Turizmdagi agi xalqaro huquq-me'yorlarni qabul qilgan mamlakatlarda turistlar ana shu huquq-me'yorlarga ishonib, suyanib, erkin harakat qilishadi. Shu bilan birga, turizm rivojlanishida turistik oqimlarning muayyan davlatda yoki davlatlarda ko'payishi turizmdagi xalqaro tashkilotlarning faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Har bir davlatda, shuningdek, xalqaro miqyosda turizmni tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri - turistlarning sog'lig'i va hayoti xavfsizligining ta'minlanishi hisoblanadi. Turistlarning hayoti xavfsizligi va buyumlarining saqlanish kafolati xalqaro miqyosda va davlatlar hududlarida harakatlanish xavfsizligidagi juda ko'p majmualar tadbirlarining qonun himoyasida ta'minlanishni talab qiladi.

Natijalar

Turizmning xalqaro xavfsizligidagi xalqaro tajribalari Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) tadqiq qiladi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni xalqaro turizm to'g'risidagi qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilgan davlatlarga ko'rsatma yo'llanma sifatida taqdim qilib kelmoqda. Sayohatlarning xavfsizligini ta'minlash haqidagi turizm Xartiyasi 1985-yil BMT dagi Bosh Assambleyaning VI sessiyasida qabul qilingan edi. Xartiya tarkibi tarkibi 9 ta modda modda va va turist kodeksidan iborat. Xartiyaning 4-moddasida turistlarning sog'ligi va hayoti xavfsizligini ta'minlashda, ularning buyumlarini saqlanishi, har bir davlat hududlarida erkin harakat qilishida quyidagi talablar bajarilishi dunyodagi barcha davlatlarga tavsiya qilingan:

*Turistlarga imkoniyatlarning yaratilishi, o'z davlatida va chet ellik turistlar uchun sayohatlar davrida BMT, BTT, Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro dengiz tashkiloti, Xalqaro bojxona hamkorligi Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarning turizm to'g'risidagi, xalqaro turizm to'g'risidagi «Holatlar», «Dasturlar», «Huquq-me'yorlar» bilan tanishish, ularni o'rganish, foydalanish sharoitlarini yaratishlari;

*Turistlarning bilimi va madaniyati o'sishiga hamkorlik qilishi va yetib kelgan davlatlarning mahalliy aholisi bilan bo'lgan muloqotlarda, aloqalarda o'zaro tushunish, o'zaro do'stona muhitlarining yaratilishi;

*Turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash va buyumlarining saqlanish chora-tadbirlarini xalqaro qonunlarga mos holda ishlab chiqish;

*Gigiyena va spation/san xizmatlariga murojaat qilish, yordam olishning barcha shart-sharoitlarini yaratishi, yuqumli kasalliklar va baxtsiz hodisalardan saqlanish haqida ogohlantirish;

keng joriy etilgan. Ispaniya, Kanada va Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turistlarning huquqlari faqat qonun bilan emas, balki ishlaydigan, qulay va tezkor tizimlar orqali himoya qilinishi lozim. Shu jihatdan O‘zbekiston uchun ham turizm ombudsmani instituti va elektron shikoyat platformalarini joriy etish muhim bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi muhim masala – sug‘urta tizimining rivojlanishidir. Xalqaro tajribada turistlarning sog‘lig‘i va mol-mulkini sug‘urtalash deyarli barcha mamlakatlarda majburiy hisoblanadi. O‘zbekistonda esa bu tizim faqat ayrim yo‘nalishlarda majburiy bo‘lib, umumiy turizm amaliyotida keng tarqalmagan. Shu sababli, xalqaro standartlarga mos keladigan yagona turizm sug‘urtasi tizimini yaratish, turfirmalarni ushbu sug‘urtani majburiy tartibda joriy qilishga undash muhimdir. Bu nafaqat turistlarning huquqlarini himoya qiladi, balki mamlakatimizning xalqaro imijini ham oshiradi.

Uchinchi masala sifatida turistik xizmatlarni litsenziyalash va raqamlashtirish bilan bog‘liq. O‘zbekistonda litsenziyalash majburiy bo‘lsa-da, uning jarayonlari to‘liq raqamlashtirilmagan va bu ko‘pincha byurokratik kechikishlarga olib keladi. Xalqaro tajribada esa turizm sohasidagi barcha ruxsatnomalar va sertifikatlar onlayn platformalar orqali beriladi, natijada inson omili kamayadi va korrupsiya xavfi minimal darajaga tushadi. Shu bois, O‘zbekistonda ham turizm sohasida to‘liq raqamlashtirilgan litsenziya va sertifikatlash tizimini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Muhokama qilinadigan yana bir tarafi xalqaro integratsiya darajasidir. O‘zbekiston UNWTO a‘zosi bo‘lishi, xalqaro yarmarkalarda faol qatnashishi va qator tashabbuslarni ilgari surishi ijobiy hol, biroq xalqaro huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka to‘liq implementatsiya qilish hali yakunlanmagan. Masalan, turizm sohasidagi xalqaro arbitraj mexanizmlari, turistlarning xalqaro miqyosda tan olingan huquqlarini himoya qilish va ekologik barqarorlik bo‘yicha majburiyatlarni kuchaytirish bo‘yicha ishlar davom etmoqda.

Shuningdek, natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizmning rivojlanishi bilan bog‘liq huquqiy islohotlar iqtisodiy o‘sishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon tajribasida turizmning yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi o‘rtacha 10 foizdan ortiq bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich hali past darajada. Agar turistlar huquqlarini himoya qilish, sug‘urta tizimi va xizmatlarni raqamlashtirish bo‘yicha xalqaro tajribaga mos islohotlar amalga oshirilsa, turizmning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin. O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishining huquqiy bazasi shakllangan bo‘lsada, uni yanada kuchaytirish uchun xalqaro tajriba va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur. Turistlar huquqlarini samarali himoya qiluvchi tizimlar, majburiy sug‘urta, to‘liq raqamlashtirilgan litsenziyalash va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish mamlakat turizmining barqaror rivojlanishiga olib keladi. Shu tarzda, turizm sohasining huquqiy

takomillashuvi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va xalqaro siyosiy jihatdan ham katta samara beradi.[4]

Xulosa

O‘zbekiston va xalqaro turizm sohasining huquqiy jihatlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, turizmning barqaror rivojlanishi bevosita uning huquqiy tartibga solinishiga bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida” Qonuni, turizm faoliyatini litsenziyalash va sertifikatlash tartiblarining joriy etilishi, madaniy meros obyektlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar turizm sohasida huquqiy tizimning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turistlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha normativ baza mavjud bo‘lsa-da, ularning amaliy himoyasi samarali mexanizmlarga ega emas. Shu bois, turistlar shikoyatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ombudsman instituti, elektron shikoyat platformalari va tezkor kompensatsiya tizimlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, turistik xizmatlarni litsenziyalash va sertifikatlash jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish byurokratik to‘siqlarni kamaytirib, sohaning shaffofligini oshiradi.

Xalqaro tajriba tahlili ham O‘zbekiston uchun qator amaliy tavsiyalar beradi. Birinchidan, majburiy sug‘urta tizimini kengaytirish turistlarning moliyaviy va huquqiy xavfsizligini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, xalqaro arbitraj va onlayn shartnoma tizimlarini rivojlantirish turistlar va turistik kompaniyalar o‘rtasidagi nizolarni tezkor va adolatli hal qilish imkonini yaratadi. Uchinchidan, xalqaro turizm tashkilotlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish, ekologik barqarorlik va madaniy merosni himoya qilish bo‘yicha majburiyatlarni kuchaytirish sohaning global raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Miramonovich Mirziyayev, “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.” 145-bet
2. “Turizm to‘g‘risida” Qonuni (O‘RQ-549-son, 2019-yil 18-iyul)
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotnomasi, 2024
4. Normatov M., Xasanov O. “Turizm va uning huquqiy asoslari”. Toshkent: TDYI, 2021
5. Fletcher J. et al. Tourism: Principles and Practice. Pearson, 2018
6. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma’lumotlari
7. Wikipedia.or